

UO'K: 336.76:330.322(575.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi

Описание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences

Butayev Javlonbek Inatillo o'g'li
Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish.....3

Бутаяев Жавлонбек Инатилло угли
Повышение эффективности инвестиций в развитие фондового рынка.....31

Butayev Javlonbek Inatillo ugli
Increasing investment efficiency in stock market development.....61

K'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....65

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.1.17.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BUTAYEV JAVLONBEK INATILLO O'G'LI

FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALAR
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

08.09.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI



Toshkent shahri – 2025-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.2.Phd/Iqt2962 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtorferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash web-sahifasida
www.issue.uz va "Ziyouet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyouet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov Sherzod Umurzoqovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Elmizayev Samariddin Eshquravovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
Toshkent shahri filiali

Dissertatsiya himoyasi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
DSc.03/30.12.2019.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29 kuni soat 16 daqiqa majlisida
bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, A. Temur ko'chasi, 60A uy. Tel.: (99871)234-53-34;
faks: (99871) 234-46-26; e-mail: ilmiykengash@tbcu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (H82 raqamli bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi,
60A. Tel.: (99871) 234-53-34; faks: (99871) 234-46-26; e-mail: admin@issue.uz

Dissertatsiya avtorferati 2025-yil 08 kuni 10 raqamli reyestr byuromasasi).



T.Z. Teshabayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
a'zosi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I.V. Ataniyozov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

I.N. Qo'ziyev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvning kuchayishi uning xalqaro fond bozoriga kirishiga hamda xalqaro moliya bozorlarida faol ishtirokchi sifatida xalqaro reyting darajasini oshirishda fond bozori muhim funksional vazifalarni bajaradi. Bu esa, o'z navbatida xalqaro fond bozorlaridan iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishga hamda uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "Jahon ichki qimmatli qog'ozlar bozorining qiymati 2013-yildagi 65,04 trillion AQSh dollaridan 2022-yilda 98,5 trillion AQSh dollariga o'sdi. 2023-yil holatiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab fond birjalarda joylashgan mahalliy kompaniyalarning umumiy bozor kapitallashuvi 112 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan". Jahon tajribasiga ko'ra, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishda fond bozori muhim ahamiyatga ega hamda globallashuv jarayonida mazkur masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Jahon amaliyotida fond bozori orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish boracida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda fond bozorini bugungi shiddatli o'zgaruvchan bozor iqtisodiyotiga uyg'un ravishda rivojlantirib borish borasida fikr-mulohazalar yuritilmoqda hamda uluksiz ravishda takomillashtirilmoqda. Fond indekslarining o'sish tendensiyasini ta'minlash, fond bozori institutsional tuzilmalarida investitsiya faoliyatini diversifikatsiya qilish, yashil moliyaviy instrumentlar va derivativlar bozorini rivojlantirish, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'sir etuvchi fundamental omillar va determinantlarni tahlil qilish, jahon fond birjalarda ishtirok etish orqali investitsiyalarni jalb qilish, jalb etilgan mablag'lardan samarali foydalanish va investitsion jozibadorlikni shakllantirishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash va bu bilan iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotga davlat aralashuvini kamaytirishda fond bozoridan umumli foydalanishga e'tibor kuchaytirilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda "kapital bozorining kapitallashuvi YalMning 1 foiziga teng"² va bu ko'rsatkich rivojlanayotgan hamda rivojlangan davlatlar bilan solishtirilganda keskin past ko'rsatkich hisoblanadi. Bu esa, o'z o'rnida investorlarning mamlakat fond bozoriga qiziqishining past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham fond bozori orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirishni chuqur ilmiy tadqiq etish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi,

¹ <https://www.statista.com/statistics/274490/global-value-of-share-holdings-since-2000>

² https://uz.uz/uz/posts/kapital-bozorini-islol-qilish-mulkdordar-uchun-kattu-imkoniyat_278813

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son
"Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir
qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2022-yil 9-noyabrdaqi PQ-415-son "Korporativ munosabatlarning huquqiy
asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil
24-martdagi PQ-102-sonli "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning
qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid
me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur
dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviyat, axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning ayrim nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan Z.Ahmed, M.Raj, S.Prakash, P.Natarajan, J.Konear, C.Keller, M.Siegrist, F.Jiang, Z.Jiang, K.Kim, J.Woolridge, C.Snow, Xinxin Chen, Yanhong Guo, Yingying Song, Zhenbin Gao, Jie Zhang, T.Foucalt, T.Gehrig, G.Strumeyer, Xusheng Fanglar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha bayon etishgan¹.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.Elmirzayev, Sh.Shoha'zamiy, F.Muxamedov, I.Karimqulov, M.Xamidulin, U.Xalikov, A.Odilov, H.Imomov, X.X.Tillayev, M.Sultanov, B.Boyev, A.Bozorov, R.Karlibayeva, X.Kadrova, B.B.Toshmurodova, M.Sadullayeva, A.Alikovlar fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirganlar va tegishli xulosalar ishlab chiqqanlar⁴.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Tadqiqotning maqsadi Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

fond bozori vujudga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasini o'rganish asosida tegishli xulosalar shakllantirish;

fond bozorini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslarini o'rganish va tegishli ishlanmalar shakllantirish;

fund bozoriga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini oshirishda xorij
tairibasini mahalliy amaliyotda qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotda fond bozorini rivojlantirishning amaliy holatini qiyosiy tahlil qilish;

fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishda ekonometrik modellar asosidagi tahlilni amalga oshirish;

iqtisodiyot tarmoqlariga qimmatli qog'ozlar bozori orqali kirib kelgan investitsiyalar samaradorligini tahlil qilish;

iqtsodiyotga qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish;

fond bozori orqali milliy iqtisodiyotga jalb etiladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston fond bozori orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish amaliyoti olingan.

приватизацию государственной собственности. // Корпоративное управление и новые бизнес-модели: новые механизмы согласованного развития. – 2020. – 118-123 стр. U.R.Xalkov. O'zbekistonda fond bozori o'qini investitsion faoliyatini moliylashtirishni takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TDUIU, 2017. – 8 bet; A.O. Odilov. Kapital bozori orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'llari: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TMI, 2021. – 18-19 b.; X.S.Tilayev. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoriga faoliyatini rivojlantirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TMI, 2020. – 13 b.; M.A.Sultonov. O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirish ishtirokchilari: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TDUIU, 2019. – 5 bet; B.J.Boev. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish analitizini takomillashtirishning aсосiy yo'nalishlari. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2021. – 24 bet; A.Aliulov. O'zbekistonda fond bozori orqali kapital oqimini oshirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TDUIU, 2021. – 8 b.; A.R.Bozorov. Real sektor korxonalarni qimmatli qog'ozlar orqali moliylashtirish me'chanizmini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TMI, 2022. – 23 b.; Karibayeva R.X. O'zbekistonda fond bozorining iqtisodiyotdagi yo'nalishlari to'g'risida o'qini oshirish / Axborot ilmiy ishlari. – 2020. – T. 35 bet.; Kadirova X.T. O'zbekiston moliya bozorini rivojlantirishning konseptual asoslari (Namangan viloyati misolida). // I.f.d. ilmiy dar. olish uchun diss. avtorefer. – T.: TDUIU, 2021. – 76 b.; B.E.Toshmurodova, M.S.Sadullayeva Ways of effect of effective organizing of the pra live organizing of the practice of the practice of attracting capi tling capital from the in al from the international financial market. // International Fin&Acc. 2019 (5). 11 p.; Atikulov A.T. O'zbekistonda fond bozori orqali kapital oqimini oshirish. // PhD dar. o' uchun diss. avtorefer. – T.: TMI, 2021. – 54 b.

Zahoor Ahmed, Michel Raj, S. Prakash, P. Natarajan, Jonardam Koncar. Global Financial Markets and Instruments. // PONDICHERRY UNIVERSITY, MBA – International Business. – Page 11; Dhan Raj Chalise. Secondary Capital Market of Nepal: Assessing the Relationship Between Share Transaction and NPESE Index. // Management Dynamics, Vol. 23, No. 2: 53–62, 2020; https://www.researchgate.net/publication/351477084_Capital_Market_trend_analysis_and_valuation_of_nepal_stock_market; Keller C., Stegrist M. Investing in stocks: The influence of financial risk attitude and values-related money and stock market attitudes. // Journal of Economic Psychology. – 2006. – Financial risk. № 2. – 285–303 p.; Jiang F., Jiang Z., Kim K., A. Capital markets, financial institutions, and corporate finance in China. // Journal of Corporate Finance. – 2020. – T. 63. – 101–309 p.; Woolridge J.R., Snow C.S. Stock market reaction to strategic investment decisions. // Strategic management journal. – 1990. – T. 11. – №. 5. – 353–363 p.; Xinyun Chen, Yanhong Guo, Yingying Song. Multiple time scales investor sentiment impact the stock market index fluctuation: From margin trading business perspective. // The North American Journal of Economics and Finance, Volume 69, Part A. 2024. – 120–150 p.; Zhenbin Guo, Jie Zhang. The fluctuation correlation between investor sentiment and stock index using VMD-I-STM: Evidence from China stock market. // The North American Journal of Economics and Finance, Volume 66, 2023, 40 p.; Foucault T., Stock price information, cross-listings, and investment decisions. // Journal of Financial Economics. – 2008. – T. 38. – №. 1. – 146–168 p.; Strumey-G. The capital markets evolution of the financial ecosystem. // John Wiley & Sons, 2017. 656 p.; Xuesheng Fung, Chunhua Ju. Digital transformation and corporate financialization in emerging markets: Evidence from China. // Heliyon, Volume 10, issue 2, 2024, 12 p.

1. Elmazayev S.E. va boshqalar "Moliya bozori". Darslik – T.: Iqtisod-Moliya, 2019–324 b., Shoba'zariy Sh. Sh. Sistemnoe razvitiye rynka tsenniy bumag v reguliruyemoy vzaimosvyazi s realnoy ekonomikoy // Monografiya – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 448 s., F. Muxamedov. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari: Iqtisodiy fanlari doktori (DSE) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2019. – 7 bet tamaddidilari M.B. Gursunov va B.B. Fomayevov ryunkov ieli korporativnoye upravleniye. – T.: s cheto pachat

Tadqiqotning predmeti fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish bilan bog'liq iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumlashtirish, guruhlantirish, iqtisodiy-statistik usullar, ekspert baholash, ekonometrik va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ustav kapitalining kamida 15 foizi hajmida zaxira fondini tashkil etish bo'yicha belgilangan talabni mas'uliyati cheklangan jamiyatlar uchun bekor qilish taklif etilgan;

ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO)ga ommaviy o'tkazish taklif etilgan;

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar singari foyda solig'ining 5 foiz stavkasida belgilanish zarurligi asoslangan;

qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (emitent bundan mustasno) tomonidan foyda solig'i va daromad solig'i o'rni bitim summasining 0,3 foizi miqdorida yig'im to'lanishi taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy fond bozorida Exchange Trading Funds (ETF), Mutual Funds kabilar orqali fond bozorida yangi ishtirokchilar faoliyatini yo'lga qo'yish va moliyaviy instrumentlar tarkibini kengaytirishning huquqiy asoslarini yaratish yo'llari aniqlab berildi;

fond bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yoki amalga oshmagan deb topilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi bo'yicha axborotlarni ommaviy axborot vositalari va o'zining rasmiy web-sayti orqali e'lon qilish muddatini qat'iy belgilash asoslab berilgan;

oxirgi uch yilda amalga oshirilgan aksiyalarni birlamchi ommaviy taklif (IPO) yoki boshqa usullar orqali joylashtirishga oid bitimlarining umumiy hajmi 100 000 000 AQSh dollaridan kam bo'lmashligi taklif etilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini qisqartirish maqsadida davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan fond bozorida "bitta aksiya – bitta lot" tamoyili asosida aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy Bank, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Fond birjasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi, shuningdek, Jahon banki, London fond birjasi, Xalqaro birjalar assotsiatsiyasi kabi xalqaro tashkilotlarning amaliy ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalarni fond bozori orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirishning nazariy jihatlarni takomillashtirish, jalb qilingan investitsiyalardan samarali foydalanish hamda strategik jihatdan kapital bozorini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalar fond bozori orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalarida "Korporativ moliya", "Moliya bozori", "Birja ishi" hamda "Investitsiya" fanlarining o'quv dasturlarini takomillashtirishda va o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ustav kapitalning kamida 15 foizi hajmida zaxira fondini tashkil etish bo'yicha belgilangan talabni mas'uliyati cheklangan jamiyatlar uchun bekor qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-noyabrda "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-415-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 13-iyundagi 9/07-25-10019-son ma'lumotnomasi). Natijada, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ixtiyorida qo'shimcha moliyaviy resurs shakllanishiga, xarajatlarni kamayishiga hamda sof foydani oshirishga imkoniyatlar yaratilgan;

ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO)ga ommaviy o'tkazish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-son "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 13-iyundagi 9/07-25-10019-son ma'lumotnomasi). Natijada, fond bozorining milliy iqtisodiyotdagi mavqei mustahkamlash hamda investitsiyalarni jalb etishdagi rolini oshirish, birja savdolariga keng jamoatchilikni jalb qilish imkoniyati paydo bo'lgan;

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar singari foyda solig'ining 5 foiz stavkasida belgilanishi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 13-iyundagi 9/07-25-10019-son ma'lumotnomasi). Natijada, aksiyalari savdosiga aholi va investorlarni jalb etishni cheklovchi aksiyalarni yirik miqdorda savdoga chiqarish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (emitent bundan mustasno) tomonidan foyda solig'i va daromad solig'i o'rniga bitim summasi 0,3 foizi miqdorida yig'im to'lanishi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-son "Kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Savdo-sanoat palatasining 2024-yil 13-iyundagi 9/07-25-10019-son ma'lumotnomasi). Natijada, qimmatli qog'ozlar bozorini zamonaviy tendensiyalar asosida rivojlantirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola (7 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, asosiy vazifalari, obyekt hamda predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan bo'lib, fond bozori vujudga kelishi va rivojlanish evolyutsiyasi, fond bozorini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari, fond bozoriga kiritilgan investitsiyalar samaradorligini oshirishda xorij tajribalari o'rganilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fond bozori mamlakatning moliyaviy tizimida muhim o'rin egallaydi. U moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishini, kapitalning ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlanishini ta'minlaydi hamda unga iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, investitsiya jarayonlarining samarali tashkil etilishi va ularning fond bozori orqali yo'naltirilishi iqtisodiyotni modernizatsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya samaradorligini oshirish esa nafaqat investorlar darajasida, balki milliy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Samarali investitsiyalar yuqori daromad keltiradi, riskni kamaytiradi va fond bozorida ishtirokchilarning ishonchini mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, investitsiya faoliyatining ilmiy-

nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, ularning fond bozoridagi o'rnini va rolini aniqlash hamda investitsion qarorlar samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan: Professor K. Rubsov tomonidan zamonaviy fond bozorlari tadqiq qilingan bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan fond bozorlarining rivojlanish xususiyatlari, ularda qo'llanilayotgan qimmatli qog'ozlar turlari atroflicha o'rganilganligini qayd etib o'tish mumkin⁵. Fikrimizcha, rivojlangan bozorlar muammolari va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish orqali xalqaro tajribalardan foydalangan holda, milliy fond bozorlarini faoliyatini takomillashtirish mumkin.

R. Fransioni, J. Freyz va A. Hekmeyer fikricha, "fond bozorini, xususan, uning tarkibiy qismi sifatida kapital bozorini tartibga solishning asosiy maqsadi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, barqarorlikning muhim shartlaridan biri kapital bozorlarida ishlaydigan infratuzilma hisoblanadi. Fond bozorlari o'rganiladigan har bir tahlilda tabiiy ravishda o'rganilayotgan kapital bozorining infratuzilmasi qoidalarini hisobga olinishi kerak"⁶. Ularning ta'kidlashicha, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital bozorining infratuzilmasi muhim rol o'ynaydi, shuningdek, fond bozori va uning tarkibiy qismi bo'lgan kapital bozorlarini o'rganish, barqarorlikni ta'minlashda zarur shartlarni yaratishga yordam beradi.

A. Pakkes hamda D. Heremans fond bozorida "asosan, ma'lumotlar nomutanosibligi tufayli moliya bozorlari, xususan, kapital bozorlari mukammal ishlay olmaydi... Ma'lumotlar nomutanosibligi fond bozorini tartibga solish zarurligini ko'rsatadi va buning uchun tartibga solish jarayoni moliyaviy ishtirokchilar orqali ta'minlanishi yoki hukumat aralashuvini talab qilishi mumkin"⁷. ekanligini ta'kidlab o'tilgan. Ularning tadqiqotlari bozorlar orqali hukumat aralashuvi yoki ishtirokchilarning o'zaro ehtiyojlarini tartibga solishga doir muhim masalalarni ilgari suradi.

Shuningdek, Kembrij universiteti (Cambridge University) olimlaridan, Colin Mayer va Xavier Vives muallifligida chop etilgan "Capital markets and financial intermediation" nomli kitobda kapital bozorining mamlakatga yalpi moliyaviy resurslarni jalb etishdagi o'rnini va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil etilib, unga ko'ra rivojlangan davlatlarda kapital bozori orqali investitsiyalarning jalb etilishining 1 foizga oshishi, iqtisodiy rivojlanishning 2,1 foiz rivojlanishiga ijroiy ta'sir etsa, rivojlanayotgan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 1,5 foizni tashkil etadi⁸. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, kapital bozorining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun ham dolzarbdur.

⁵ B. Pytyuk. *Competition for financial power*. — M.: Anna Maria Emma Eby, 2007. — 926 c.

⁶ Reto Francioni, James H. Freis, Alexandra Hachmeister. *Financial market regulation*. // Article. Springer Link. January 18, 2017. — P. 3.

⁷ Alessio M. Paces, Dirk Heremans. *Regulation of Banking and Financial Markets*. // DOI: 10.2139/ssrn.1914461. SSRN electronic Journal. May 2011.

⁸ Colin Mayer, Xavier Vives. *Capital markets and financial intermediation*. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 1993, 81-108.

Mahalliy olimlardan I. Butikov⁹ tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorining joriy holati, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'nalishlariga qaratilgan qator tadqiqot ishlari e'lon qilingan. Bunda milliy fond bozorida mavjud aktivlar, emitentlar tarkibi va faolligi, qimmatli qog'ozlar bozori imkoniyatlaridan foydalanish va unga ta'sir ko'rsatayotgan omillar, davlat ulushining yuqoriligi va bu ulushni xususylashtirishga qaratilgan mulohazalarni alohida qayd etib o'tish lozim. Fikrimizcha, mamlakatda mavjud muammolarni hal qilish va soliq imtiyozlarini yaratish orqali fond bozorining imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin.

Professor S. Elmirzayev fikricha, "potensial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o'tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim. Chunki dividendlarga nisbatan soliq yuki yuqori bo'lgan davlatlarda aksiyalar sotib olish orqali daromad ko'rishga intilish darajasi nihoyatda past bo'ladi"¹⁰. Professor S. Elmirzayevning investorlarni jalb qilish va soliqqa tortish darajasining ahamiyati haqidagi fikriga qo'shilamiz. Soliq siyosati investorlarga ta'sir ko'rsatadi va yuqori soliq yuki aksiyalarni sotib olishni istamagan investorlarni jalb qilishni qiyinlashtiradi, bu esa bozorda kapitalning kirmasligiga olib kelishi mumkin.

F. Muxamedov fikricha, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni keng jalb qilish maqsadida "mahalliy kapital bozorlarini rivojlantirish, xususan, obligatsiyalar chiqarish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash uchun kapital jalb qilish"¹¹ masalalari ham keng miqyosda tadqiq etilgan bo'lib, ushbu jihatlarda kapital bozorining ahamiyatini yanada oshiradi. Fikrimizcha, ushbu masalalar bozorni yanada rivojlantirishga va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga yordam beradi.

Professor J. Karimqulov, O'zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yo'llari borasida ilmiy izlanishlar olib borib, ilmiy tadqiqotlari natijasida fond bozorining iqtisodiyotdagi rolining nazariy jihatlarini ifodalovchi, tavsiflovchi va unga obyektiv baho berishni ta'minlovchi indikatorlar tizimi va ularni tahlil qilish usullarini taklif etilgan. O'zbekistondagi kompaniyalar aksiyadorlik kapitali tuzilmasining fond bozori rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri sust ekanligi aniqlandi va uni faolligini kuchaytirish maqsadida strategik ahamiyatga ega emitent kompaniyalarni aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish taklif etgan¹². Fikrimizcha, aksiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushini qisqartirish va kompaniyalar faoliyatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni taklif etishi, fond bozorining samarali rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

J. Ataniyazov va E. Alimardonovlar "qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi institutsional investorlar tarkibiga sug'urta kompaniyalari,

pensiya fondlari, investitsiya fondlari, banklar kiradi"¹³, deya guruhlagan. Fikrimizcha, institutsional investorlar guruhlariga oid fikrlar ham muhimdir. Sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari va investitsiya fondlarining bozor faoliyatida rolini oshirish, fond bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

U. Xalikov "fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli va yuqori daromad keltiruvchi vositalarni muomalaga kiritish"¹⁴ muhim ekanligini ta'kidlagan. Fikrimizcha, fond bozorining rivojlanishi kapital bozorining tarkibiy qismi sifatida uni rivojlantirishga hamda institutsional investorlar faolligini oshirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

A. Aliqulov "fond bozori – o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladigan bozor"¹⁵, deya ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, kapital bozoridan kapital jalb qilish imkoniyatlarini oshirish, fond bozorini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini milliy amaliyotga tatbiq qilish masalalariga ham e'tibor qaratgan. A. Aliqulovning fond bozori haqida ta'kidlagan fikriga qo'shilamiz, chunki o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar savdosi bo'yicha rivojlangan tajriba va milliy amaliyotni tatbiq qilish, bozorni rivojlantirish va investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish zarur.

Yuqoridagilarni umumlashtirib Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning mazmun-mohiyatini ifodalovchi quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb bildik. Fikrimizcha, fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish – bu moliyaviy resurslarni fond bozorining turli instrumentlari orqali iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish jarayonida, investitsiyalar natijasida olinadigan daromad va jimo'iyy iqtisodiy ta'siri maksimal darajada oshirish, shu bilan birga risklarni kamaytirish, kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlash hamda bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks iqtisodiy-moliya jarayoni deb, ta'riflash mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fond bozori mamlakat moliyaviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U orqali iqtisodiyotda mavjud bo'lgan bo'sh moliyaviy resurslar samarali tarzda qayta taqsimlanadi, real sektorning moliyaviy ta'minoti kuchayadi va kapital bozorining chuqurlashuvi ta'minlanadi. Fond bozorining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi esa, avvalo, ushbu bozor ishtirokchilari – emitentlar, investitsion vositachilar va investorlarning o'zaro samarali va muvozanatli hamkorligiga bog'liq.

Fond bozorining asosiy harakatlaniruvchi kuchi – emitentlar bo'lib, ular kapital jalb qilish maqsadida turli moliyaviy instrumentlarni – aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqaradilar. Emitentlar safida aksariyat hollarda korxonalar, banklar, sug'urta kompaniyalari va davlat

⁹ J. Ataniyazov, E. Alimardonov: Xalqaro moliya munosabatlari. // Darslik. — Toshkent: O'zbekiston faylasufi milliy jamiyati nashriyoti, 2014. — 432 b.

¹⁰ U. R. Xalikov. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorferati. — T.: TDU, 2017. — 8 b.

¹¹ A. Aliqulov. O'zbekistonda fond bozori orqali kapital oqimini oshirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorferati. — T.: TDU, 2021. — 8 b.


⁹ Бутиков И. И. Рынок ценных бумаг Узбекистана: новые горизонты.

¹⁰ Elmirzayev, S. (2019) "The practice and analysis of mass positioning of shares of joint-stock companies," International Finance and Accounting. Vol. 2019: Iss. 1, Article 3. Available at: <https://ojs.uzjournal.org/interfinance/vol2019/iss1/3>

¹¹ F. Muxamedov. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlari: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtorferati. — T.: TMI, 2019. — 7 bet.

¹² Karimqulov J. O'zbekiston iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar bozori rolini oshirish yo'llari. 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi va kredit". Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtorferati. 17 b.

tashkilotlari qatnashadi. Shu bilan birga, fond bozorida investitsion vositachilar ham muhim rol o'ynaydi. Ular – brokerlik, dilerlik tashkilotlari, investitsion banklar, aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalar va depozitariylar bo'lib, investorlar va emitentlar o'rtasidagi alqalarni ta'minlaydi. Ularning asosiy vazifasi – fond bozorida shaffof, xavfsiz va samarali operatsiyalarni amalga oshirishga ko'maklashishdir (1-rasm).



1-rasm. Fond bozorining emitentlari, investitsion vositachilari hamda investorlar to'g'risida¹⁶

Fond bozori iqtisodiyotning muhim moliyaviy mexanizmi bo'lib, unda asosiy rol emitentlar, investitsion vositachilar va investorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Emitentlar moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi, investitsion vositachilar esa bozordagi operatsiyalarni tashkil etib, bozorning shaffoligi va samaradorligini ta'minlaydi. Investorlar esa mablag'larini samarali yo'naltirish orqali kapital bozorining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu boisdan ham, fond bozorining asosiy ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, ularning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy bazasini mustahkamlash, shaffollik va raqobat muhitini yaratish fond bozorini rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotda investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'lida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarning samaradorligi nafaqat kapitalning rentabelligi, balki risklarni boshqarish, bozor infratuzilmasi va institutsional muhit bilan chambarchas bog'liq.


Dissertatsiyaning "O'zbekiston iqtisodiyotida fond bozori orqali investitsiyalar samaradorligini oshirishning amaldagi holati tahlili" deb nomlangan ikkinchi bobida milliy iqtisodiyotda fond bozorini rivojlantirishning

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

amaliy holati va tahlili, fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirishning ekonometrik modellar asosidagi tahlili, iqtisodiyot tarmoqlariga qimmatli qog'ozlar bozori orqali kirib kelgan investitsiyalar samaradorligi tahlil qilingan.

Bozor munosabatlari chuqurlashtirib borayotgan hozirgi sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xususiy sektorga investitsiyalar oqimini ko'paytirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda fond bozorining samarali faoliyat yuritishi orqali investitsiya resurslarini jalb qilish va ularning iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy bazasi takomillashtirilmoqda, birja infratuzilmasi rivojlantirilmoqda, davlat korxonalari aksiyalarini IPO orqali sotish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Shuningdek, investorlar huquqlarini himoya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va bozor ishtirokchilarning faolligini oshirish bo'yicha ham ijobiy qadamlar tashlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan yagona fond birjasi hisoblangan "Toshkent" Respublika fond birjasida aksiyalar savdolari bo'yicha ma'lumotlarni quyidagicha tahlil qilib chiqamiz (2-rasm).



2-rasm. "Toshkent" RFBsida 2020–2024-yillar davomida savdo bitimlari soni va qiymati tahlili¹⁷

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Toshkent" RFBsida 2020–2024-yillar uchun birja kotirovkalari varag'iga kiritilgan emitentlarning umumiy bozor kapitallashuvi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, 2024-yil holatiga savdolarning umumiy hajmi 21,95 trln so'mni (1,71 mlrd dollar) tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 19,06 trln so'mga yoki 659,3 foizga o'sdi. Bunda, 19,56 trln so'm (1,53 mlrd dollar) yoki tuzilgan bitimlarning 89,11 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar hissasiga to'g'ri keldi.

"Toshkent" RFB savdo bitimlari va qiymatini asosan ikkita bozor ko'rsatkichlari tashkil etib kelmoqda, bularga: Aksiyalar bozori va obligatsiyalar

¹⁷ "Toshkent" RFB rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

bozori hisoblanadi. 1-jadvalda aksiyalar bozoridagi yillar kesimidagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin, 2024-yilda savdolar hajmi 19,18 trln so'mni (\$1,5 mlrd) tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan savdolar hajmi 16,56 trln so'mga yoki 632,0 %ga oshgan. Shu bilan birga, savdolarining asosiy hajmi (18,6 trln so'm) aksiyalarni birlamchi joylashtirish bo'yicha bitimlar va ikkilamchi bozorda blok-bitimlar amalga oshirilgan pulsiz hisob-kitoblari platformasiga (Free of Payment Board, FoP) to'g'ri keldi. FoP maydonchasida bitimlar hajmining sezilarli darajada o'sishi birjadan tashqari uyushmagan bozordan bitimlar tuzish uchun uyushgan bozordan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tayotgan emitentlarning undan faol foydalanishi bilan izohlanadi, bu esa fond bozorida ochiqlik va shaffoflik darajasini oshirishni ta'minlaydi. Bu uyushmagan bozor ulushini o'tgan yilgi 94 foizdan 58 foizgacha qisqartirishga olib keldi. Mos ravishda, uyushgan bozor ulushi o'tgan 2023-yilgi 6 foizdan 2024-yilda 42 foizgacha oshdi. O'tkazilgan savdolarining o'rtacha kunlik hajmi 77,4 mlrd so'mni, tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 790 tani tashkil etdi.

“Toshkent” RFBsida 2020–2024-yillar kesimida aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili¹⁸

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Savdolar hajmi, mln so'm	510 800	1 147 110	4 705 790	2 620 570	19 182 120
O'rtacha kunlik savdolar hajmi, mln so'm	2 003	4 588	19 052	10 567	77 347
Bitta bitimning o'rtacha hajmi, mln so'm	14,2	16,1	58,4	6,4	43,2
Bitimlar soni, dona	35 983	71 187	80 652	411 393	443 849
O'rtacha kunlik bitimlar soni, dona	141	285	327	1 659	1 790

Tuzilgan bitimlar sonining ko'payishi ko'p jihatdan qimmatli qog'ozlar bozoriga chakana investorlarning kirib kelishi bilan izohlanadi, bunga birjada savdo qilish uchun FinTech yechimlarining faol joriy etilishi yordam berdi. 2024-yil davomida “Xalqchil IPO” dasturi doirasida 42,9 mlrd so'mlik (\$3,4 mln) bitta ommaviy joylashtirish – “O'zRTXB” AJ tomonidan SPO o'tkazildi. Yil yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 242,42 trln so'mgacha (\$18,8 mlrd) o'sdi va YalMga nisbatan 16,3 foizni, erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning (free float) bozor kapitallashuvi esa 4,3 trln so'mni (\$330,3 million) yoki YalMga nisbatan 0,3 foizni tashkil etdi. Yil yakunlariga borib Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 89 ta emitentning aksiyalari mavjud edi.

UCI indeksi – bu O'zbekiston fond bozori uchun “termometr” yoki iqtisodiy barometr hisoblanadi. Uning yordamida bozordagi umumiy ahvol, investitsion muhit, islohotlarning natijasi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari haqida tez, ishonchli va umumlashtirilgan axborot olish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda Uzbekistan Capital Index (UCI) tarkibiga mamlakat

¹⁸ “Toshkent” RFB yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari – metallurgiya (masalan, O'zmetkombinat), qurilish materiallari (Qizilqumsement), telekommunikatsiya (O'zbektelekom), neft-gaz va energetika (O'zbekneftegaz, O'ztransgaz), bank-moliya (NBU), sanoat va ishlab chiqarish (Kvarts, Biokimyo, O'zavtosanoat) hamda tovar birjasi (UZEX) kabi sohalarida faoliyat yurituvchi eng yirik va likvid kompaniyalar aksiyalari kiradi; ushbu kompaniyalar mamlakatda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va moliyaviy xizmatlar sohasining rivojida muhim o'rin tutadi va UCI indeksi orqali butun fond bozori dinamikasi, investitsion muhit va iqtisodiy barqarorlik umumlashtirilgan tarzda aks etadi.

UCI indeksi



3-rasm. “Toshkent” RFBsida 2020–2024-yillar kesimida aksiyalar bozorining UCI indeksi ko'rsatkichlari (punktli) dinamikasi¹⁹

Yuqoridagi 3-rasmida “Toshkent” RFBsida 2020–2024-yillar kesimida aksiyalar bozorining UCI indeksi punktli dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, biz tadqiqot o'tkazayotgan yillar oralig'idagi eng past ko'rsatkich 2022-yil 11-noyabr sanasida qayd etilgan hamda 316,36 punktni tashkil etgan.

Milliy fond bozorining ikkinchi yirik va asosiy tarkibiy qismi hisoblangan Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 2024-yil yakuniga kelib 381 mlrd so'mni (29,8 mln dollar) tashkil etib, o'tgan 2023-yilda qayd etilgan natijaga nisbatan olinganda 288,8 mlrd so'mga yoki 313,3 %ga o'sdi. Tadqiqot yilining oxirgi yilida o'rtacha kunlik savdolar hajmi 1,5 mlrd so'mni, o'rtacha kunlik bitimlar soni 13 tani tashkil etdi, buni quyidagi 2-jadval “Toshkent” RFBsida 2020–2024-yillar kesimida aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili ma'lumotlariga ko'ra tahlil qilganda. Yil yakuniga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 817,6 mlrd so'mni (63,3 mln dollar) yoki YalMga nisbatan 0,1 foizni tashkil etdi.

¹⁹ “Toshkent” RFB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2-jadval
"Toshkent" RFBsida 2020–2024-yillar kesimida korporativ obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlili²⁰

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Savdolar hajmi, mln so'm	67 340	113 400	110 420	92 180	380 960
O'rtacha kunlik savdolar hajmi, mln so'm	264	454	447	372	1 536
Bitta bitimning o'rtacha hajmi, mln so'm	852,4	375,5	1 555,2	193,2	122,2
Bitimlar soni, dona	79	302	71	477	3 118
O'rtacha kunlik bitimlar soni, dona	1	1	1	2	13

Korporativ obligatsiyalar bozori milliy fond bozorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bozor orqali yirik va o'rta biznes subyektlari o'z faoliyatini rivojlantirish, yangi loyihalarni moliyalashtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni jalb qiladi. Shu bilan birga, korporativ obligatsiyalar bozori investorlarga aksiyalar va bank depozitlaridan tashqari yangi, barqaror va kamroq riskli investitsiya imkoniyatini taqdim etadi. Mazkur bozorning rivojlanishi milliy fond bozorida kapital oqimini ko'paytiradi, moliyaviy instrumentlar turlarini kengaytiradi, raqobatni oshiradi va moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, korporativ obligatsiyalar orqali investitsiyalar real sektorga yo'naltiriladi, iqtisodiy o'sish va infratuzilma rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishida fond bozorini rivojlantirishning zaruriy ekanligini ekonometrik tahlil yordamida ham hisoblash mumkin. O'zbekiston fond bozoridagi holatni tadqiq etishda tadqiqotlarni ishonchli va aniq raqamlar asosida yuritish uchun ekonometrik tahlil usuliga murojaat qildik. Quyida Stata dasturi orqali amalga oshirilgan ishlarining amaliy natijalari bilan tanishib chiqamiz. Tadqiqotimizda natijaviy belgi sifatida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YalM) olingan bo'lib natijaviy belgiga ta'sir etuvchi omil belgilar sifatida "Toshkent" RFBda savdolar hajmi, aksiyalarning umumiy savdo hajmi, inflyatsiya darajasi hamda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ko'rsatkichlari tanlab olingan. Dastlab Stata dasturida to'plangan ma'lumotlar bo'yicha umumiy xulosalarni ko'rsatib beruvchi "summarize" buyrug'i orqali quyidagi jadvalni hosil qildik.

Ko'rsatkichlar tavsifi²¹

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Yillar	14	2016.5	4.1833	2010	2023
Savdalash-i	14	841.5736	1328.012	64.27	4811.75
YalM	14	407902.1	315795.1	78936.6	1066569
Inflyatsiya	14	17.555	10.14685	8.93	48.58
Investitsi-i	14	120357.1	111244.8	16463.7	352100

²⁰ "Toshkent" RFB yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

²¹ Stata dasturi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

3-jadval orqali shuni ko'rish mumkin, tadqiqotlar 5 ta ko'rsatkich asosidagi 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan 14 yilni o'z ichiga olgan. O'rganilayotgan davr bo'yicha uzoq muddatni olish maqsadga muvofiq bo'lar edi, ammo mahalliy fond bozoridagi qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar boshlanganiga ko'p bo'lmadi. Ushbu yillar davomida ko'rsatkichlarning eng quyi va eng yuqori natijalari jadvalda aks ettirilgan hamda har bir ko'rsatkichning ekonometrik jihatdan o'rta xatolik va standart chetlanishlari ham keltirilgan.

Tadqiqotning keyingi bosqichlarida natijaviy belgi va omil belgilar o'rnatidagi bog'liqlikni aniqlashtirdik. Bunda natijalar yana lam aniq chiqishi uchun barcha ko'rsatkichlar doirasida "correlate" buyrug'i orqali tahliliy jadvalni hosil qildik.

4-jadval

Korrelyatsiya jadvali²²

	Yillar	Savdolar	YalM	Inflyatsiya	Investitsiya
Yillar	1.0000				
Savdalash-i	0.6933	1.0000			
YalM	0.9502	0.8044	1.0000		
Inflyatsiya	-0.4549	-0.2040	-0.3333	1.0000	
Investitsiya	0.9357	0.7477	0.9909	-0.2969	1.0000

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Toshkent" RFBda savdolar hajmining boshqa ko'rsatkichlar bilan aloqasi tahlil qilinganda inflyatsiyadan tashqari deyarli barcha ko'rsatkichlar bilan korrelyatsiya koeffitsiyenti sezilarli darajadagi to'g'ri bog'liqlikka ega ekanligini ko'rish mumkin. Ya'ni savdolar hajmi va yillar o'rnatidagi bog'liqlik (0.6933) sezilarli darajadagi to'g'ri bog'liqlikda, savdolar hajmi va YalM o'rnatidagi bog'liqlik (0.8044) yuqori darajadagi to'g'ri bog'liqlikda, savdolar hajmi va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'rnatidagi bog'liqlik (0.7477) sezilarli darajadagi to'g'ri bog'liqlikda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Faqatgina inflyatsiya darajasi qimmatli qog'ozlar savdolariga (-0.2040) teskari bog'liqlikda ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu jadval orqali xulosa qilish mumkin, inflyatsiyaning mavjudligi barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. YalM va fond bozori o'rnatidagi yuqori bog'lanish kuchi mavjud va bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida fond bozorining o'rta katta ekanligini anglatadi. Shuningdek, inflyatsiya darajasi esa barcha iqtisodiy jarayonlarga o'zining salbiy ta'siri mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur tahliliy ishlarining davomi sifatida va tadqiqot uchun umumiy xulosalar chiqarish uchun regressiya jadvalini hosil qilish maqsadga muvofiq.

Regressiya jadvallarida keltirilgan koeffitsiyentlar asosida olib borilgan tadqiqotning ahamiyatligiga baho berish mumkin. Xususan, regressiya jadvali ma'lumotlari olib borilgan tadqiqotning ahamiyatli ekanligini anglatmoqda. Chunki Fisher mezon (F-test)ga ko'ra Prob > F 0.000 ga teng va p < 0.05 ekanligi modelning ahamiyatligini anglatadi. Student mezon (T-test)ga ko'ra p > |t| da p < 0.05 ekanligi inflyatsiya ko'rsatkichidan tashqari boshqa omil belgilarining ahamiyatli ekanligini anglatadi. Savdolar hajmi koeffitsiyentining 0.005 ga teng ekanligi Student mezon bo'yicha omil belgining ahamiyatli ekanligini isbotlaydi.

²² Stata dasturi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar koeffitsiyenti 0,000 ga teng ekanligi ham yuqoridagi fikrimizning isboti hisoblanadi.

5-jadval

Regressiva iadvali¹³


SOURCE	SS	df	MS	NUMBER OF OBS	1958 CONF. INTERVAL
Model	1.2873e+12	3	4.2909e+11	F(3, 19) = 0.0000	55.94118
Residual	2.1704e+08	10	2.17040423	R-SQUARED = 0.9929	50.94006
				Adj R-SQUARED = 0.9908	2.724375
Total	1.2966e+12	13	9.9727e+10	Root MSE = 10.283	15.95627
YVAR					
Savedatahshnd	34.71118	9.528134	3.64	0.005	13.48117
Infirmaryshnd	-432.279	967.1449	-1.64	0.331	-3357.388
Investicshnd	2.46447	1.116077	21.13	0.000	2.204639
_____cons	1.07096	21931.62	4.98	0.001	58229.3

Shuningdek, R-squared ko'rsatkichining 0,9929 ga teng ekanligi ham omil belgilar natijaviy belgining xususiyatlarini ochib berishga yuqori darajada qatnashishini anglatadi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra tanlab olingan omil belgilar natijaviy belgining 90 foizidan ortiq xususiyatlarini ochib berishga yordam bergan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida fond bozori savdolari hajmi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida, xususan, ValMning o'sishida katta ahamiyatga ega ekanligini xulosa qilish mumkin.

Olib borilgan ekonometrik tahlillar natijasida $y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots$ shaklidagi model uchun quyidagi tenglikni keltirishimiz mumkin.

Yalm=107096+34,77*savdolar hajmi-1245,2*inflyatsiya+2,46*investitsiyalar

Masalan qoldiq va omil belgilarning o'zaro bir-biriga bog'liqligini aniqlash uchun *rvfplot* buyrug'idan foydalanish mumkin.



4-rasm. Geteroskastlik grafigi²⁴

Stata dasturi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

²⁴ Stata dasturi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu grafik shaklini tahlil qiladigan bo'lsak, grafik chapdan o'ngga tomon yoyilgan holatda kengayib bormoqda. Bu esa geteroskadalilik mavjud ekanligiga ishora qiladi. Ushbu farazni raqamlarda aniqlashtirish uchun *estat imtest* buyrug'ini ham qo'llash maqsadga muvofiq.

6-jadval

Kameron Trivedi test²⁵

Source	chi2	df	p
Heterogeneity	14.00	13	0.3738
Skewness	5.05	4	0.2819
Kurtosis	0.61	1	0.3670
Total	19.67	18	0.3404

Bunda H_0 – bosh gipoteza gomogenlikni bildiradi. Agar $p < 0,05$ bo'lsa H_0 – bosh gipoteza rad etilib H_1 – alternativ gipoteza qabul qilinadi. Alternativ gipoteza geteroskadalitlik bor ekanligi tarafdori, $p > 0,05$ bo'lsa, geteroskadalitlik yo'q ekanligini bildiradi. β_1 koeffitsiyentning noldan farqli ekanligi x omil belgining y natijaviy belgiga bog'liq ekanligini bildiradi. Agar geteroskadalitlik mavjud ekanligi aniqlansa outlier-tashqi x omil belgilarni chiqarib tashlash yoki ko'rsatkichlarni logarifmlash kerak bo'ladi.

Umumiy natija, shuni ko'rsatmoqdaki, savdo hajmi 2010-yildan 2023-yilgacha taxminan 39 barobar oshgan. Bu savdo faoliyatining keskin rivojlanganini ko'rsatadi. YalM 13 barobarga o'sib, iqtisodiyotning kengayishi va barqarorligini bildiradi. Inflyatsiya darajasi esa 48,58 foizdan 12,1 foizgacha tushib, taxminan 75 foizga kamiyagan, bu esa makroiqtisodiy barqarorlikning yaxshilanganidan dalolat bergan. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 20 barobarga ortib, iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan sarmoyalarning jadali oshganini ko'rsatgan. Yuqoridagi barcha test tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda YalM va fond bozori o'rtasida yuqori darajada bog'lanish mavjud bo'lib va bu mamlakat iqtisodiy rivojlanishida fond bozori orqali yo'naltirilayotgan investitsiyalarning ahamiyati katta ekanligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda inflyatsiya darajasi esa iqtisodiy jarayonlarning barchasiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston fond bozori iqtisodiyotni moliyalashtirishda muhim rol o'ynay boshlagan bo'lsa-da, uning to'liq salohiyatini ro'yog'ga chiqarish uchun kompleks ishlohtlar va moliyaviy madaniyatni oshirish zarur. Bu esa investitsiyalar samaradorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Milliy iqtisodiyotda fond bozori orqali investitsiyalar samaradorligini oshirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodiyotga qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari va unda fond bozori orqali milliy iqtisodiyotga jalb etiladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'nalishlari tadqiq etilib, ushbu bobning yakunida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

²³ *Stata* dasturi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda investitsiyalarning roli beqiyosdir. Investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda texnologik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun asosiy manbadir. Shu bois, investitsiyalarni samarali jalb qilish va boshqarish milliy iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda fond bozori so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish bosqichidan o'tmoqda. Biroq, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish va investitsiyalar samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish uchun istiqbolli yo'nalishlar va zamonaviy moliyaviy mexanizmlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolar sifatida quyidagilarni keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz: fond bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi; moliyaviy savdoxonlikning pastligi; likvidlikning past darajasi; qonunchilikdagi kamchiliklar va tartibga solishdagi byurokratiya; mahalliy investorlarga nisbatan past rag'batlar; professional ishtirokchilarning yetishmasligi. Qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilish rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun strategik moliyalashtirish manbai bo'lishi mumkin. Ammo bu yo'ldagi to'siqlar infratuzilma, ishonch, bilim darajasi va qonunchilikdagi muammolar hal etilmas ekan, fond bozorining investitsiya salohiyati to'liq ro'yobga chiqmaydi.

Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyotini liberalashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda kapital bozorining, xususan, fond bozorining roli tobora ortib bormoqda. Fond bozori iqtisodiyotning moliyaviy asosi sifatida korxonalarga uzoq muddatli resurslarni jalb etish imkonini berib, iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vositaga aylanmoqda. "Toshkent" Respublika Fond Birjasi (RFB) – O'zbekistonda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish uchun asosiy platforma bo'lib, oxirgi yillarda u orqali amalga oshirilgan bitimlar soni sezilarli darajada ortdi. 2020-yilda atigi 36 ming dona bitim bajarilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 498 ming donaga yetdi.




5-rasm. "Toshkent" RFBda savdo bitimlari soni, ta²⁶

²⁶ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Bu esa aholining fond bozoriga qiziqishi ortib borayotganini, raqamli infratuzilmaning rivojlanayotganini va investorlar faolligining keskin oshganini ko'rsatadi. "Toshkent" RFBda savdo bitimlari soni ko'rsatkichlarida 2020–2024-yillarda o'sish tendensiyalari kuzatilgan bo'lib, ularni 2025–2029-yillarda bitimlar soni bo'yicha tahlil va prognoz qilib chiqamiz (5-rasm).

"Toshkent" RFBda bitimlar soni 2020–2024-yillarda 13,8 barobar oshgan, bu esa fond bozori infratuzilmasining jadal rivojlanayotganini bildiradi. Agar bu ko'rsatkichlar davom etsa, 2030-yilga borib bitimlar soni 1,5 million donadan oshishi mumkin. Bu esa fond bozorining likvidligi, jozibadorligi va real iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirib boradi.

2020–2024-yillar uchun "Toshkent" Respublika Fond Birjasi (RFB) savdolar hajmi, bitimlar soni, YaIM hajmi va YaIMga nisbatan fond bozori ulushi bo'yicha ma'lumotlar asosida fond bozori orqali investitsiyalar samaradorligini oshirish holati va dinamikasini quyidagicha tahlil qilish mumkin (6-rasm).




6-rasm. "Toshkent" RFBda savdolari, "Toshkent" RFBda savdo bitimlari hajmi va YaIM joriy narxlarida²⁷

Savdo hajmi va bitimlar sonining o'sishi 2020-yilda fond bozori savdo hajmi 578,15 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 19 563,08 mlrd so'mgacha oshib, 34 barobarga yaqin o'sgan. Bitimlar soni ham shunga mos ravishda 2020-yildagi 36 ming donadan 2024-yilda 498 ming donagacha oshgan, ya'ni 13,8 barobar o'sgan. Bu investorlar faolligining oshgani va fond bozori infratuzilmasining kengayganini ko'rsatadi. YaIMga nisbatan fond bozori ulushi esa 2020-yilda fond bozori YaIMning atigi 0,09 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 1,34 foizgacha ko'tarilgan. Bu o'sish juda muhim indikator hisoblanadi. Fond bozori real iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirayotganini bildiradi. Garchi bu hali ham rivojlangan davlatlar darajasidan ancha past bo'lsa-da ular

²⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan.

odatda 50-100 foiz atrofida bo'lgan, ya'ni O'zbekistonda sezilarli ijobiy tendensiya kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda global aktsiya bozorining hajmi 115 trillion AQSH dollaridan oshgan bo'lsa, obligatsiya bozorining hajmi esa undan ham katta taxminan 140 trillion AQSH dollariga yetmoqda. Bu ko'rsatkichlar dunyo moliyaviy tizimining kengligi va murakabligini, shuningdek, investitsiyalarning global taqsimotini aks ettiradi (7-rasm).



7-rasm. Global muomaladagi aksiya va obligatsiya bozoridagi hajmi, trln AOSH dollarida²⁸

Global muomaladagi aksiya va obligatsiya bozorlari trillionlab AQSh dollar hajmiga ega bo'lib, dunyo iqtisodiyotining asosiy moliyaviy resurslarini ta'minlaydi. Aksiya bozori korxonalar uchun kapital jalb qilishda, obligatsiya bozori esa qarz mablag'larini moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bozorlarning kengligi va likvidligi investitsiyalarning samarali taqsimlanishini, iqtisodiy o'sish

<https://www.sifma.org/wp-content/uploads/2023/07/2024-ma-lumotlari-asosida-muallif-tomonidan-tayyorlangan>.

va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Shuning uchun, global moliyaviy bozorlarning rivojlanishi iqtisodiyotning barqarorligini mustahkamlash va investitsiyalar hajmini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi.

So'nggi vaqtlarda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ) uchun ustav kapitaliga nisbatan 15 foiz zaxira fondini tashkil etish talabini bekor qilish taklifi ko'pchilik e'tiborini tortadigan masalaga aylandi. Bu taklif O'zbekiston Respublikasining soliq, moliya va ishlab chiqarish sohasidagi qonunchilikni yanada soddalashtirishga, biznesni rivojlantirishga va xususiy sektorni rag'batlantirishga qaratilgan yo'nalishdagi qadami sifatida qaraladi. Qonunchilikka ko'ra, 15 foiz zaxira fondi tashkil etish talabini bekor qilish, biznesning moliyaviy holatini qo'llab-quvvatlash uchun MChJlar uchun katta yuklama bo'lishi mumkin, chunki bu, aslida, ko'p holatlarda boshqa xarajatlarga qaytarish va zaxiralarni to'plashga olib kelishi mumkin. Bu haqidagi qonunchilik o'zgarishlari, albatta, iqtisodiy holatga, xususiy sektorning rivojlanishiga va davlatning huquqiy va moliyaviy strategiyalarini amalga oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy o'tkazish taklifi, davlat mulkini xos bo'lmagan sektorlarga sun'iy ravishda ishtirok etishi uchun xususiy lashtirish va kapital bozorlarida hamda xususiy sektorni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan strategik qadamdir. Ushbu taklifning maqsadi bir nechta muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan: davlatning ulushini xususiy lashtirish orqali davlat o'zining yoki davlatga tegishli kompaniyalarning faoliyatini samarali tashkil etishga, shuningdek, davlat byudjetiga mablag'lar jalb qilishga erishishi mumkin. IPO va SPO orqali ommaviy aksiyalar solish jamiyatlarning mustaqilligini oshirib, davlatning xo'jalik faoliyatiga ta'sirini kamaytirishga imkon beradi. IPO va SPO ommaviy takliflari kapital bozorining likvidligini oshirish, investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi. IPO va SPO orqali xususiy lashtirish, shuningdek, kompaniyalarda yuqori darajadagi boshqaruv va moliyaviy hisobot berishni rag'batlantiradi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining shaffofligini oshiradi va investorlar uchun qo'llaniladigan malakali jarjorlarni qabul qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlariga foyda solig'i stavkasining 5 foizda belgilanishi taklifiga, mamlakatning investitsiya muhiti va iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan qadam sifatida qaralishi mumkin. Bu taklifning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat, jumladan: dividendlarga nisbatan soliq stavkasi 5 foizga kamaytirilsa, bu chet ellik investorlarning O'zbekistonga sarmoya kiritishga qiziqishini oshiradi. Norezident yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi kamayishi, ularning o'z kapitalini O'zbekiston bozorlariga olib kirishini rag'batlantiradi va bu esa mamlakatning iqtisodiyotga sarmoya kiritilishini oshiradi. 5 foiz stavkasi O'zbekistonning hamkor davlatlarga nisbatan soliq raqobatini kuchaytirishi va mamlakatni mintaqadagi investitsion jozibador manzil sifatida pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin. Bu, ayniqsa, iqtisodiy globalizatsiya va tashqi savdo sharoitlarida muhim ahamiyatga ega. Foyda

solig'i stavkasi 5 foizga kamaytirilishi, O'zbekistonning soliq tizimini shaffoflashtirish va xatirlarni kamaytirishga yordam beradi. Bu soliqning yuqori stavkalari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni kamaytirib, davlatni xalqaro soliq raqobatida o'z pozitsiyalarini mustahkamlaydi. Ushbu taklif, O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini, investitsiya muhitini va soliq tizimini yaxshilashga qaratilgan muhim qadam bo'lib, mamlakatning iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki berishi mumkin.

7-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsa, jismoniy shaxslar uchun barcha asosiy daromad manbalarida (sotishdan foyda, dividend, kupon) 0% soliq stavkasi qo'llanilishi: aholi mablag'larini bank omonatlaridan ko'ra yuqoriroq daromad keltiradigan moliyaviy instrumentlarga yo'naltirishga undaydi. Bu esa o'z navbatida kapitalning uzoq muddatli investitsiyalarga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu yondashuv moliyaviy savodxonlik darajasining oshishiga imkon beradi.

7-jadval
Qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar tuzishda qo'llaniladigan soliqlar,
foizda²⁹

Nomi	Operatsiya tavsifi	Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar	Amal qilish muddati	Manba
Daromad solig'i	Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishdan olingan daromadlar	0%	0%	Doimiy	2015-yil 3-iyundagi O'RQ, 16-moddasi
Dividend solig'i	Dividendlardan olingan daromadlar	0%	5%	01.04.2022y. -31.12.2028y.	17.01.2022 y., PQ-90, 1-band
Kupon solig'i	Kuponlardan olingan daromadlar	0%	0%	01.04.2022y. -31.12.2028y.	17.01.2022 y., PQ-90, 1-band


Xulosa qilib aytganda, bu soliq imtiyozlari qisqa muddatda byudjetga tushumlar kamayishini anglatishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, investitsion muhitning yaxshilanishi va barqaror o'sish uchun zarur bo'lgan muhim islohotlardandir.

Qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan savdosida bitimlar tuzishda foyda solig'i va daromad solig'i o'miga bitim summamining 0,3 foizi miqdorida yig'im to'lanishi taklifi orqali bir necha muhim maqsadlarga erishish mumkin: Bitimlar tuzishda foyda solig'i va daromad solig'i o'miga 0,3 foiz miqdorida yig'im to'lash talabining joriy etilishi soliq tizimini soddalashtirishga xizmat qiladi. Bu birja vositasida emas, balki birjadan tashqari savdoda amalga oshiriladigan bitimlarda ham soliq hisob-kitoblarni osonlashtiradi. Shu bilan birga, ko'pchilik uchun talablarni tushunish va amalga oshirishda qiyinchiliklarni kamaytiradi. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq soliq to'lovlarini kamaytirish, shuningdek, soliqning kam miqdorida to'lanishi investitsiya muhitini yaxshilashga olib keladi. Mahalliy va xalqaro investorlari uchun yanada ham jozibador qiladi. Bu

²⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan

qaror, birinchi navbatda, qimmatli qog'ozlar savdosi bilan shug'ullanuvchi moliya tashkilotlari, brokerlar va investorlar uchun samaradorligini oshirib boradi.

Quyidagi 8-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsa, 2019–2023-yillar oralig'ida O'zbekiston qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozori hajmi sezilarli darajada o'sdi. Ayniqsa, 2021- va 2022-yillarda bozor hajmida keskin ko'payish kuzatildi, bu yillar bozor faolligining avj olgan davri sifatida ajralib turadi. 2022-yilda hajm 2021-yilga nisbatan uch barobardan ko'proq o'sib, 5 trillion so'mga yetdi.



8-rasm. 2019–2023-yillarda qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozorlari hajmining dinamikasi, mlrd so'mda³⁰

2023-yilda esa o'sish sur'ati biroz sekinlashgan bo'lsa-da, bozor hajmi 6,25 trillion so'mga yetib, umumiy rivojlanish tendensiyasi davom etmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekiston moliya bozorining barqarorlashayotganini va qimmatli qog'ozlar savdosining faollashayotganini isbotlaydi. Kelajakda bozorning yanada rivojlanishi uchun investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy instrumentlarni diversifikatsiyalash va investorlar ishonchini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa iqtisodiyotning turli tarmoqlariga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Fond bozori bu emitentlar, investitsion vositachilar va investorlarning uzviy hamkorligiga asoslangan murakkab moliyaviy tizimdir. Emitentlar iqtisodiyotga kapital jalb etish orqali o'sishga xizmat qiladi, investitsion vositachilar bozorning samarali ishlashi va ishonchligini ta'minlaydi, investorlar esa o'z mablag'larini sarmoya qilib, iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Ushbu uch asosiy bo'linmaning o'zaro munosabatlari fond bozorining barqarorligi, likvidligi va samaradorligini belgilaydi. Emitentlar va investorlar o'rtasida ishonch muhitini yaratish, vositachilarning professional faoliyatini rivojlantirish fond bozorining uzoq muddatli rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa, fond bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi va investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Milliy fond bozorini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Exchange Traded Funds (ETF) va Mutual Funds kabi investitsion

³⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

vositalarni joriy etish zarur. Ushbu moliyaviy instrumentlar yangi ishtirokchilarni bozorga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular kichik investorlar uchun ham portfelni diversifikatsiya qilish va xavfni kamaytirish imkoniyatini yaratadi. ETF va Mutual Funds faoliyatining samarali tashkil etilishi uchun mustahkam va aniq huquqiy baza yaratish shart. Bu, o'z navbatida, investorlar himoyasini ta'minlash, fondlar faoliyatining shaffofligini oshirish hamda moliyaviy bozorda ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Fond bozorini rivojlantirish investitsiyalar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Fond bozori iqtisodiyotga yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish, kapital oqimlarini samarali taqsimlash va investorlarning ishonchini oshirish orqali investitsiyalar hajmi va sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Rivojlangan fond bozori korxonalar va davlat loyihalarini moliyalashtirishda uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bozorning likvidligi, shaffofligi va tartibga solish mexanizmlari investitsiya samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida fond bozorini kengaytirish va samarali ishlashini ta'minlash uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish, qonunchilik bazasini takomillashtirish, investorlar uchun qulay sharoit yaratish zarur. Bunday chora-tadbirlar iqtisodiyotga investitsiyalarni ko'paytirib, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. 2020–2024-yillar davomida "Toshkent" Respublika Fond Birjasining faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa, savdo hajmi va bitimlar sonining yildan-yilga oshib borayotgani fond bozorining iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. 2020-yilda fond birjasidagi savdo hajmi 578 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam qariyb 19,6 trln so'mga yetdi. Bu bor-yo'g'i 5 yil ichida 33 barobardan ko'proq o'sish degani. Bitimlar soni ham xuddi shunday 2020-yilda atigi 36 mingga bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 498 mingdan oshgan. Yana muhim jihatlardan biri fond bozori savdolarining YaIMdagi ulushi ham oshgani. 2020-yilda bu ulush atigi 0,09 % bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 1,34 %ga yetgan. Bu hali xalqaro darajaga chiqmagan bo'lsa-da, o'sish sur'atlari ijobiy. Demak, fond bozori asta-sekin iqtisodiyotning yirik moliyalashtirish manbalaridan biriga aylanmoqda. Shu asosda aytish mumkin, O'zbekistonda fond bozori orqali investitsiya jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bozordagi faoliyat kuchaymoqda, ishtirokchilar soni ortmoqda va investorlar ishonchi tobora mustahkamlanmoqda. Biroq bu yo'nalishda hali qilinadigan ishlar ko'p: shaffoflikni oshirish, aholining moliyaviy savodxonligini kuchaytirish hamda bozor infratuzilmasini yanada takomillashtirish zarur.

5. O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va raqobatbardosh tarzda rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda fond bozori, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozori asosiy moliyalashtiruvchi mexanizmlardan biri sifatida qarash mumkin. So'nggi yillarda "Toshkent" Respublika Fond Birjasida savdolar hajmi va bitimlar soni jadal sur'atlarda oshmoqda. Jumladan, 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda bitimlar soni 36 mingdan 498 ming donagacha, savdolar hajmi esa 578 mlrd so'mdan 19,5 trln so'mgacha yetdi. Bu esa fond bozoriga bo'lgan

ishonchning ortgani, moliyaviy vositalar infratuzilmasining takomillashgani va investorlar faolligining oshganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilishda hali ham qator tizimli muammolar mavjud: moliyaviy savodxonlikning pastligi, bozor likvidligining yetarli emasligi, shaffoflik darajasining pastligi, qimmatli qog'ozlar turlarining cheklanganligi va ishonch muammosi – bularning barchasi investorlar faolligini to'liq namoyon bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda.

6. Ustav kapitalning kamida 15 foizi hajmida zaxira fondini tashkil etish bo'yicha belgilangan talabni mas'uliyati cheklangan jamiyatlar uchun bekor qilish taklif etilgan; ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini aksiyalarining birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO)ga ommaviy o'tkazish taklif etilgan; O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan yuridik shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tartidagi daromadlariga O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar singari foyda solig'ining 5 foiz stavkasida belgilanish zarurligi asoslangan; qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari uyushgan savdosida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar tuzilganda sotuvchi (emitent bundan mustasno) tomonidan foyda solig'i va daromad solig'i o'rni miga bitim summasining 0,3 foizi miqdorida yig'im to'lanishi zarurligi asoslangan.

7. 2010–2023-yillar davomida "Toshkent" Respublikasi Fond Birjasida savdolar hajmi, YaIM, inflyatsiya darajasi va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'rnatida yaqqol o'zaro bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Bu ko'rsatkichlarning dinamikasi investitsiyalar samaradorligini oshirishdagi asosiy omillarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, savdolar hajmi va asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o'smoqda, ayniqsa 2020-yildan keyin tez sur'atlar bilan oshgan. Bu fond bozorining rivojlanayotgani va iqtisodiyotga sarmoya kiritish imkoniyatlarining kengayganidan dalolat beradi. YaIMning o'sishi bilan birga investitsiyalar hajmi ham oshishi investitsiyalar samaradorligi va iqtisodiy o'sish o'rnatidagi ijobiy aloqani ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasi esa o'zgaruvchan bo'lib, ba'zi yillarda investitsiyalarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Shu sababli inflyatsiyani nazorat qilish investitsiyalar samaradorligini oshirishda muhim vazifa hisoblanadi. Umuman olganda, ekonometrik tahlil asosida investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun fond bozorining faoliyatini kengaytirish, inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish hamda asosiy kapitalga investitsiyalarni rag'batlantirish zarurligi aniqlandi. Bularning barchasi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga va milliy daromadning oshishiga xizmat qiladi.

8. AQSh va Buyuk Britaniya fond bozorlari dunyodagi eng rivojlangan va samarali moliyaviy tizimlarga ega bo'lib, ularning tajribasi investitsiyalar samaradorligini oshirishda muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi. Bu mamlakatlarda fond bozorining rivojlanishi asosan qonunchilik bazasining shaffofligi, investorlarga ishonchni mustahkamlash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi orqali ta'minlangan. AQSh bozorida investitsiyalar samaradorligini oshirishda innovatsiyalar, keng ko'lamli qimmatli qog'ozlar turlari

(jumladan, ETF, opsiyalar, derivativlar) va kuchli regulator tizimi muhim rol o'ynaydi. Buyuk Britaniya esa xalqaro moliyaviy markaz sifatida fond bozorining global standartlarga mosligini ta'minlab, investitsion vositachilar faoliyatining yuqori darajasini saqlab qolgan. U yerda ham investitsiyalarni jalb qilishda shaffoflik, likvidlik va samaradorlik ustuvor ahamiyatga ega. O'zbekistonda ham ushbu tajribalarni o'rganib, milliy sharoitga moslab joriy etish fond bozorini rivojlantirish va investitsiyalar samaradorligini oshirish uchun samarali yo'l bo'ladi.

9. Qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilishdagi mavjud muammolar sifatida quyidagilarni keltiramiz: fond bozorining yetarliligi rivojlanmaganligi; moliyaviy savodxonlikning pastligi; likvidlikning past darajasi; qonunchilikdagi kamchiliklar va tartibga solishdagi byurokratiya; mahalliy investorlarga nisbatan past rag'batlar; professional ishtirokchilarning yetishmasligi. Qimmatli qog'ozlar orqali investitsiyalarni jalb qilish rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun strategik moliyalashtirish manbai bo'lishi mumkin. Ammo bu yo'lidagi to'siqlar infratuzilma, ishonch, bilim darajasi va qonunchilikdagi muammolar hal etilmas ekan, fond bozorining investitsiya salohiyati to'liq ro'yobga chiqmaydi.

10. Fond bozorini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, bozor infratuzilmasini mustahkamlash, qonunchilikni takomillashtirish, yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish hamda investorlarni himoya qilish orqali investitsiyalar hajmi va sifatini oshirish lozim. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash fond bozorining samarali ishlashini kafolatlaydi. Natijada, ushbu omillar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

БУТАЕВ ЖАВЛОНБЕК ИИАТИЛЛО УГЛИ

НОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ФОНДОВОГО РЫНКА

08.00.07 – "Финансы, денежное обращение и кредит"

АВТОРЕФЕРАТ

диссертация доктора философии (Doctor of Philosophy) по экономическим наукам



город Ташкент – 2025 год

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована под номером B2023.2.PhD/Iq2962 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.issue.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: Раджабов Шерход Умуркулович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:
Жумаев Нодир Хосниатович
доктор экономических наук, профессор
Элмиряев Самариддин Эшкuvatovich
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский филиал Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова

Защита диссертации состоится в 16⁰⁰ часов «29» 10 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc 03/30.12.2019.1.17.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100000, город Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34, факс: (99871) 234-46-26, e-mail: imiyukengash@isc.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована за номером 1382). Адрес: 100000, город Ташкент, проспект Амира Темура, 60А. Тел.: (99871) 234-53-34, факс: (99871) 234-46-26, e-mail: admin@isc.uz.

Автореферат диссертации разослан «08» 10 2025 года
(протокол реестра № 88 от «08» 10 2025 года).



Т.З. Тешабоев
Исследователь. Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Ж.Х. Атанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Н. Куниев
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Углубление интеграции мира в международную финансовую систему привело к выходу страны на международный фондовый рынок, и, являясь активным участником международных финансовых рынков, фондовый рынок выполняет важные функциональные функции по повышению международного рейтинга. Это, в свою очередь, способствует привлечению инвестиций с международных фондовых рынков в экономику и повышению её конкурентоспособности. По данным Всемирного банка, «стоимость мирового внутреннего рынка акций выросла с 65,04 трлн. долларов США в 2013 году до 98,5 трлн. долларов США в 2022 году. По состоянию на 2023 год общая рыночная капитализация отечественных компаний, котирующихся на фондовых биржах мира, составляла 112 трлн. долларов США»¹¹. В соответствии с мировым опытом, фондовый рынок играет важную роль в привлечении инвестиций в экономику, а глобализация еще больше повышает актуальность этого вопроса.

В мировой практике проводится много научных исследований по развитию привлечения инвестиций в экономику через фондовый рынок. В данных исследованиях представлены суждения о том, как развивать фондовый рынок в соответствии с быстро меняющейся рыночной экономикой сегодняшнего дня и постоянно его совершенствовать. К ним относятся многочисленные научные исследования, посвященные обеспечению тенденции роста фондовых индексов, диверсификации инвестиционной активности в институциональных структурах фондового рынка, развитию рынка зеленых финансовых инструментов и деривативов, анализу фундаментальных факторов и детерминант, влияющих на международный рынок ценных бумаг, привлечению инвестиций посредством участия на мировых фондовых биржах, эффективному использованию привлеченных средств, а также формированию инвестиционной привлекательности.

В Узбекистане повышенное внимание уделяется эффективному использованию фондового рынка для улучшения инвестиционного климата и тем самым сокращения вмешательства государства в экономику путем привлечения иностранных и внутренних инвестиций во все сферы экономики. На сегодняшний день в Узбекистане «капитализация рынка капитала равна 1 проценту ВВП»¹², что является существенно низким показателем по сравнению как с развивающимися, так и с развитыми странами. Данный факт, в свою очередь, обуславливает низкий интерес инвесторов к фондовому рынку страны. Поэтому необходима разработка предложений по устранению существующих проблем посредством проведения глубоких научных исследований в области развития привлечения инвестиций в экономику через фондовый рынок.

¹¹ <https://www.statista.com/statistics/274490/global-value-of-share-holdings-since-2000>

¹² https://uz.uz/posts/kapital-bozorini-isloh-qilish-mulkdorlar-uchun-katta-imkoniyat_278813

научные исследования в рамках данной темы и сформулировали соответствующие выводы.¹⁴

Связь темы диссертации с планами научно-исследовательской работы высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Ташкентского государственного экономического университета в рамках темы "Научные основы координации финансовой, банковской и учетной систем в условиях модернизации экономики".

Целью исследования является разработка научных предложений и практических рекомендаций, направленных на повышение эффективности инвестиций в развитии фондового рынка.

Задачи исследования состоят в следующих:

формирование соответствующих выводов на основе изучения становления и развития фондового рынка;

изучение нормативно-правовых основ развития фондового рынка и формирование соответствующих разработок;

разработка предложений по применению зарубежного опыта в отечественной практике в целях повышения эффективности инвестиций на фондовом рынке;

проведение сравнительного анализа практической ситуации развития фондового рынка в национальной экономике;

проведение анализа на основе эконометрических моделей для повышения эффективности инвестиций в развитие фондового рынка;

